

FUQAROLIKNI YO'QOTISH ASOSLARI VA ULARNI HUQUQLARINI HIMOYALASH

*Bo'stonova Mohichexra Alisher qizi
Toshkent shahar yuridik texnikumi o'quvchisi*

Annotatsiya. «Fuqarolik to'g'risida» gi Qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi asoslari belgilab qo'yilgan. Unga asosan, quyidagi hollarda fuqarolik to'xtatiladi: fuqarolikdan chiqish oqibatida; fuqarolikni yo'qotish oqibatida; O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarda; qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarda to'xtatilishi mumkin. Ushbu maqolada fuqarolikni yo'qotish asoslari va ularni huquqlarini himoyalash haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik, qonun, manfaat, davlat, majburiyat.

Asosiy qism

O'zbekiston fuqarosi bo'lgan shaxslar, o'z iltimosiga ko'ra, O'zbekiston fuqaroligidan chiqishi mumkin. Fuqarolikdan chiqmoqchi bo'lgan shaxs oldiga ba'zi talablar qo'yiladi. Bu talablar davlat va jamiyat, fuqarolar manfaatidan, mamlakat xavfsizligi manfaatlaridan kelib chiqadi. O'zbekiston fuqaroligidan chiquvchi shaxsning davlat, fuqarolar yoki tashkilotlar oldida majburiyatları bo'lmasligi kerak. Bu ko'proq mulkiy majburiyatlar bo'lishi mumkin. Masalan, shaxs davlatdan kredit olsa, uni to'liq to'lamaguncha, davlat oldida majburiyatga ega. Yoki shaxs fuqarolar oldida ham mulkiy majburiyatga ega bo'lishi, turli qarzlari bo'lishi mumkin. Shunday hol bo'lganda, fuqarolikdan chiqish haqidagi iltimos rad etiladi.

Fuqarolikdan chiqish istagini bildirgan shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa yoki unga nisbatan kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa, yoki shaxsning fuqarolikdan chiqishi davlat xavfsizligiga, manfaatlariga zid bo'lsa, fuqarolikdan chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston fuqarosi o'z ixtiyoridan tashqari ham fuqarolikni yo'qotishi mumkin. Qonunga asosan, O'zbekiston fuqarosi:

- chet davlatga harbiy xizmatga, xavfsizlik idoralari, politsiya, adliya idoralari yoki davlat hokimiyati idoralari ishga kirsa;
- chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston fuqarosi 5 yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa;
- O'zbekiston fuqaroligi soxta ma'lumot va hujjalarga asosan olingan bo'lsa, fuqarolikni yo'qotadi.

Ota-onaning har ikkisi O'zbekiston fuqaroligidan chiqqan vaqtida ularning 14 yoshgacha bo'lgan bolalari ham fuqarolikdan chiqqan hisoblanadi.

Ota-onalardan biri O'zbekiston fuqaroligidan chiqsa, boshqasi esa O'zbekiston fuqarosi bo'lib qolaversa, bola O'zbekiston fuqaroligini saqlab qoladi.

Ota-onalarning fuqaroligi o'zgargan taqdirda, shuningdek, bolalar farzandlikka olinganda, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar fuqaroligi ularning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolikka oid masalalar tegishli davlat organlarida ko'rib chiqildi. Davlat organlarining vakolatlari «Fuqarolik to'g'risida»gi Qonunda belgilangan. Qonunga ko'ra, fuqarolikka oid ishlarni ko'rvuchi idoralar quyidagilar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi.
3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi.
4. Respublika diplomatik va konsullik muassasalari.

Fuqarolikka qabul qilish, fuqarolikni tiklash, fuqarolikdan chiqarish, fuqarolikni yo'qotganligi haqida qaror O'zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilinadi.

Ichki ishlar vazirligi va uning vakolati idoralar O'zbekistonda doimiy yashovchi shaxslardan

O'zbekiston fuqaroligiga o'tish haqida arizalar qabul qiladi. Fuqarolikka o'tish uchun keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi. Arizani zarur hujjatlar bilan Prezident huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha komissiyaga yo'llaydi. O'zbekiston hududida yashovchi shaxslarning O'zbekiston fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi. Respublikada yashovchi shaxslar O'zbekiston fuqaroligini yo'qotgan hollarni qayd etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi, diplomatik va konsullik muassasalarini quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- chet ellarda doimiy yashovchi shaxslardan O'zbekiston fuqaroligiga o'tish haqida arizalar qabul qiladi;
- shu masala bo'yicha keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;
- arizalarni zarur hujjatlar bilan birga Prezident huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha komissiyaga yo'llaydi;
 - chet elda doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;
 - chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston fuqaroligini yo'qotganligini aniqlaydi;
 - O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashab turgan fuqarolarini hisobga oladi.

Fuqarolikka oid arizalar faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozilib, ariza doimiy istiqomat qiladigan ichki ishlari idoralariga, chet elda esa tegishli diplomatik yoki konsullik muassasalariga topshiriladi.

Chet el fuqarolari o'z fuqaroligini o'zgartirish masalalariga mazkur davlatning munosabatini bildiruvchi hujjatni arizaga qo'shib taqdim etishi kerak.

Fuqarolik masalalariga taalluqli arizalar har qanday holda yozma shaklda bo'lib, ariza berilgan idoralarda rasmiylashtiriladi. Arizani rasmiylashtirgan idoralar ariza yuzasidan xulosalar chiqaradi va uni Prezident huzuridagi komissiyaga yuboradi.

Fuqarolikka oid arizalarni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Prezidenti huzurida fuqarolik komissiyasi tuziladi. Komissiya ariza va unga qo'shimcha berilgan dalil hamda hujjatlarni atroflicha o'rganadi. Komissiya har bir ariza yuzasidan Prezidentga takliflar kiritadi.

Fuqarolikka oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish muddati bir yildan oshmasligi kerak.

Shaxs fuqaro bo'lgach, fuqaro va davlat o'rtasida ma'lum munosabatlar orqali uzviy bog'lanish vujudga keladi. Bu bog'liqlik o'zaro majburiyatlar orqali mustahkamlanadi.

Fuqaroning davlat oldidagi majburiyatlari ularning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan burchlari orqali amalga oshirilsa, o'z navbatida, davlatning fuqaro oldidagi majburiyatlari Konstitutsiyada belgilangan majburiyati orqali amalga oshiriladi.

Davlatning fuqaro oldidagi mas'ulligi Konstitutsiyaviy tuzum prinsiplari darajasiga ko'tarilganligi (2-modda) mamlakat ichkarisida ham, tashqarida ham davlat faoliyatini fuqarolar huquqlarini, manfaatini himoyalashga yo'naltirishga asos bo'ladi.

Konstitutsiyaning 22-moddasida bu masalaning qonuniy ifodasi o'z o'rnini topgan. Unga asosan, «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi».

Fuqarolarni mamlakat hududida himoya qilish turli vositalar orqali amalga oshiriladi. Bular:

- fuqarolar huquq va erkinliklarining Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilishi;
- fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi, buzilgan huquqlarni tiklovchi davlat organlari tizimining o'rnatilishi;
- fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat tuzilmalari faoliyatiga ko'maklashish.

Avvalgi bandlarda aytiganidek, fuqarolar huquqlarini ta'minlashda sud organlarining faoliyati alohidadir. «Sudlar to'g'risida» gi Qonunda sudlarning asosiy vazifasi fuqarolar huquqlarini himoya qilish, deb ko'rsatilgan.

Boshqa davlat organlarining faoliyatiga tegishli qonunlarni ko'radigan bo'lsak, ularda ham fuqarolarning huquqlari, xavfsizligini ta'minlash vazifasi mavjudligini ko'ramiz.

Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiritilgan vazifalar qatorida fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash ham ko'rsatilgan, bu «Mahalliy davlat hokimiyyati to'g'risida» gi Qonunda yanada kengroq ifodalangan.

Mamlakatdagi huquqni muhofaza qiluvchi barcha organlar fuqarolar huquqlarini himoya qilish

vazifasiga ega. Bundan tashqari, yana maxsus organlar tuzilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi fuqarolar huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari milliy markazi shunday organlardan hisoblanadi.

O'zbekiston fuqarolari mamlakat tashqarisida, boshqa mamlakatlar hududida ham O'zbekiston davlati tomonidan himoya qilinadi. Bu vazifani bevosita O'zbekistonning tashqi mamlakatlardagi diplomatik va konsullik idoralari bajaradi. O'zbekiston fuqarolari chet ellarda surishtiruv, tergov, sud organlari tomonidan javobgarlikka tortilsa, davlat ularni huquqiy himoya qilishi, advokatlar bilan ta'minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T."O'zbekiston", 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. T., «O'zbekiston», 2013.
3. O. Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. T., «Ilm-Ziyo», 2017.
4. O. Husanov. Konstitutsiyaviy huquq atamalari. T., «Sharq», 2015.